

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA ROSSIYA KAPITALINING KIRIB KELISHI VA SANOAT TARAQQIYOTI

Shoqulov Farrux Anvarjonovich

Toshkent shahar Sergeli tumani

269-maktab tarix fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17096713>

Annotasiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o'lkasida amalga oshirilgan iqtisodiy siyosat tahlil qilingan. Mustamlaka manfaatlariga mos ravishda o'lkada kapitalistik ishlab chiqarishning rivojlanishi, rus sanoat kapitalining kirib kelishi va sanoat korxonalarining tashkil topishi jarayonlari yoritilgan.

Xususan, dastlabki paxta tozalash, ko'nchilik, vino va aroq, tegirmon, yog' zavodlari faoliyati, ularning o'lkadagi iqtisodiy hayotga ta'siri haqida ma'lumotlar berilgan. Maqolada chor hukumati tomonidan Turkistonni xomashyo bazasiga aylantirish siyosati, mahalliy aholining iqtisodiy manfaatlarining chekhanishi hamda rus monopolistlarining paxta savdosida tutgan o'rni ilmiy manbalar asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston, Rossiya imperiyasi, sanoat korxonalari, paxta tozalash zavodi, rus kapitali, xomashyo bazasi, monopoliyalar, savdo firmalari, mustamlakachilik siyosati, iqtisodiy rivojlanish.

ВХОЖДЕНИЕ РОССИЙСКОГО КАПИТАЛА И РАЗВИТИЕ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ТУРКЕСТАНЕ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация. В данной статье рассматривается экономическая политика Российской империи в Туркестанском крае во второй половине XIX – начале XX веков. Анализируется процесс внедрения капиталистического производства, проникновение российского промышленного капитала и организация первых промышленных предприятий. Особое внимание уделено деятельности хлопкоочистительных, кожевенных, винокуренных, мукомольных и маслобойных заводов, а также их влиянию на социально-экономическую жизнь региона. В статье показано, что царское правительство стремилось превратить Туркестан в сырьевую базу, ограничивая экономические интересы местного населения и усиливая позиции российских монополистов в торговле хлопком.

Ключевые слова. Туркестан, Российская империя, промышленные предприятия, хлопкоочистительный завод, российский капитал, сырьевая база, монополии, торговые фирмы, колониальная политика, экономическое развитие.

THE PENETRATION OF RUSSIAN CAPITAL AND INDUSTRIAL DEVELOPMENT IN TURKESTAN IN THE LATE 19TH – EARLY 20TH CENTURY

Abstract. This article examines the economic policy of the Russian Empire in the Turkestan region during the late 19th and early 20th centuries. It analyzes the introduction of capitalist production, the penetration of Russian industrial capital, and the establishment of early manufacturing enterprises. Special attention is given to the activities of cotton-processing, leather, distillery, flour-milling, and oil-producing factories, as well as their impact on the socio-economic life of the region.

The study highlights how the Tsarist government aimed to transform Turkestan into a raw material base, restricting the economic interests of the local population while strengthening the role of Russian monopolists in the cotton trade.

Keywords: Turkestan, Russian Empire, industrial enterprises, cotton-processing plant, Russian capital, raw material base, monopolies, trading firms, colonial policy, economic development.

Kirish. Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasini bosib olgach, bu hududda mustamlaka manfaatlariga mos boshqaruv tizimi shakllantirildi. Bu jarayon faqat siyosiy sohada emas, balki iqtisodiy hayotda ham o'zining chuqur ta'sirini ko'rsatdi. Avvalo, o'lkaga rus sanoat kapitali kirib kela boshladi. Natijada xalq xo'jaligining asosi hisoblangan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik sohalari jiddiy o'zgarishlarga duch keldi. Rus kapitalining kirib kelishi mahalliy naturaviy ishlab chiqarishga zarba berdi va an'anaviy xo'jalik shakllarining yemirilishiga sabab bo'ldi.

Biroq mustamlaka tuzumining o'zi mustabidlikka asoslanganligi tufayli, Turkistonda sof kapitalistik munosabatlarning to'laqonli qaror topishiga imkon bermadi. Shunga qaramay, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'lkada dastlabki zavod va fabrikalar paydo bo'ldi. Bu jarayon, bir tomonidan, Rossiyaning iqtisodiy manfaatlari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomonidan, o'lka ichki xo'jalik tizimining asta-sekin modernizatsiyalashuviga olib keldi.

XIX asr oxirlariga kelib, Rossiyada kapitalistik taraqqiyotning yangi bosqichi — monopoliyalar davri yuzaga keldi. Monopolistik kapital o'z faoliyatini kengaytirish uchun xomashyo manbalari va yangi bozorlarni izlay boshladi. Shu sababli chet el, ayniqsa mustamlaka hududlariga kapital chiqarish tezlashdi. Turkiston ham bu jarayonlardan chetda qolmadni.

O'lkaning paxta, jun, charm kabi xomashyo manbalari Rossiya sanoati uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, monopoliyalar bu sohalarga faol kirib kela boshladilar.

Bu davrda transport infratuzilmasining rivojlanishi, ayniqsa temiryo'llarning qurilishi jarayonga katta ta'sir ko'rsatdi. Temiryo'l tarmoqlarining vujudga kelishi bilan Rossiya monopolistik kapitalizmi Turkiston o'lkasidagi barcha sohalarga — sanoat, savdo, moliya va qishloq xo'jaligiga keng miqyosda kirib bordi. Natijada o'lka iqtisodiyoti Rossiya imperiyasining umumiyligi xo'jalik tizimiga tobora ko'proq bog'lanib, uning mustamlakachilik siyosatiga xizmat qila boshladi.

Asosiy qism. XIX asrning 60–90-yillarida Turkiston o'lkasida ishga tushirilgan sanoat korxonalari asosan kam quvvatli bo'lib, ular son jihatdan ham ozchilikni tashkil etardi. Katta quvvatli va yirik ishlab chiqarish korxonalari esa, odatda, rus kapitalistlariga tegishli bo'ldi.

O'lkaga rus kapitalining faol kirib kelishi 1865-yilda Toshkent shahrining bosib olinishi bilan bevosita bog'liqdir. Aynan shu davrdan boshlab rus burjuaziya vakillari — savdogarlar, amaldorlar, harbiylar va ishbilarmonlar hukumatdan o'lkada sanoat korxonalari qurish uchun ruxsat so'ray boshladilar.

Masalan, 1867-yilda rus savdogarlar I.I. Pervushin va A. Xrennikovlar Toshkentda, V.Y. Spiridov va V.P. Kuznetsovlar esa Xo'jandda aroq va vino zavodlarini qurishga harakat qilganlar. Bu jarayon sanoatning turli sohalarida ham kuzatildi. Xususan, 1867-yili rus muhandislari tomonidan Yevropa tipidagi dastlabki suv tegirmoni ishga tushirildi.

Uning ishlab chiqarish quvvati bir kecha-kunduzda 720 pud un bo‘lib, mahalliy xo‘jalik uchun muhim ahamiyat kasb etdi. 1868-yilda esa rus sanoatchisi M. Xludov Solor arig‘i bo‘yida ilk Yevropa andozasidagi ko‘nchilik zavodini barpo etdi. Keyinchalik bu zavodni sotib olgan Tezikov uni zamонави uskunalar bilan jihozlab, katta kapital yig‘ishga muvaffaq bo‘ldi.

Rus sanoatchilari, avvalo, o‘lkada taqchil bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat yuritdilar. Chunki mahalliy bozorda sham,sovun, gugurt kabi uy-ro‘zg‘or buyumlariga talab juda yuqori edi. Masalan, gugurt o‘lkaning o‘zida ishlab chiqarilmay, asosan Rossiyadan keltirildi. Shu bois bu sohada katta foyda ko‘rish mumkinligini yaxshi anglagan kapitan A.N. Chernyaviskiy 1869-yilda o‘lkada gugurt zavodi qurish uchun general-gubernatoridan ruxsat so‘ragan. Xuddi shuningdek, savdogar E. Chulin Solor yonida qurilgan sovun va sham zavodini kengaytirish maqsadida hukumatdan qarz so‘ragan.

Biroq bu loyihalarning aksariyati amalga oshmadi. Mustamlakachi rus hukumati, bir tomondan, o‘lkada kapitalistik bozor munosabatlarining haddan tashqari tez rivojlanishini istamagan, ikkinchi tomondan, Turkiston iqtisodiyotini Rossiya markaziy hududlariga iqtisodiy jihatdan qaram holda saqlab qolishga intilgan. Shu sababli sanoat korxonalarining rivojlanishi sekin kechgan bo‘lsa-da, o‘lkaning iqtisodiy hayotida asta-sekin modernizatsiya jarayonlari yuz bera boshladi.

O‘lkadagi sanoatchilar faoliyati dastlab aroq-vino, ko‘nchilik, tegirmon va sham-sovun ishlab chiqarish bilan cheklanmagan. Masalan, I.I. Pervushin nafaqat aroq va vino zavodlari, balki qo‘rg‘oshin va toshko‘mir konlarini ham ishga tushirdi. Shu tariqa Turkistonda sanoat korxonalari tarmog‘i asta-sekin kengayib, qurilish materiallariga bo‘lgan ehtiyoj ham ortdi.

Zavod va fabrikalar uchun pishgan g‘isht tanqisligi yuzaga kelgach, Mulla Abduraim ismli tadbirdor bu sohada faoliyat olib borib, g‘isht yetkazib berish bo‘yicha shartnomalar tuzdi.

1881-yildan Toshkentda paxta tozalash zavodlari ishga tushirildi. Dastlab bu zavodlarda oltita paxta tozalash dastgohi o‘rnatalgan edi. Shuningdek, Samarqand viloyatining Mitan qishlog‘ida knyaz Tinxachev tomonidan birinchi paxta tozalash zavodi qurildi. Keyinchalik L.O. Yugovich Kattaqo‘rg‘onda bug‘ mashinasi orqali ishlaydigan zavodlarni ishga tushirdi.

Paxta tozalash zavodlari sonining ko‘payishi bilan paxta chigit katta hajmda yig‘ilib qoldi. Ilgari yoqilg‘i sifatida foydalanilgan chigit 1890-yildan boshlab yog‘ olish uchun ishlatila boshlandi. Dastlabki yog‘ zavodi Buxoroda K. Drjevetskiy tomonidan qurildi, biroq ishlab chiqarish uslubining g‘ayriislomiyligi sababli mahalliy aholi uning mahsulotlarini sotib olishdan bosh tortdi. Shu bois yog‘ korxonasi uzoq faoliyat yuritmadi.

Rossiya imperiyasining iqtisodiy siyosati Turkistonda sanoat korxonalarining rivojlanishiga qarshi qaratilgan edi. Tadqiqotchi K. Jitov ta’kidlaganidek: “Chorizm ataylab o‘lkada sanoatning, birinchi navbatda og‘ir sanoatning rivojlanishiga yo‘l bermadi. O‘rta Osiyo rus kapitalistlarining zavod va fabrikalari uchun xom ashyo bazasi sifatida kuch bilan ushlab turildi. Mustamlakaga aylantirilgan Turkistonda xomashyo ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, birona ham to‘qimachilik fabrikasi qurilmadi”.

Shuningdek, Turkiston general-gubernatori A.V. Samsonovning 1909-yildagi nutqi bu siyosatni ochiq ifoda etadi. Uning fikricha, agar paxtani qayta ishlash bo‘yicha zavodlar Turkistonda qurilsa, bu Yevropa qismidagi manufaktura sanoatiga katta zarar yetkazardi.

Shuning uchun paxta asosan xomashyo sifatida olib ketilib, Moskva va boshqa markaziy hududlarda qayta ishlangan.

Rus monopolistlari o'lkadagi eng daromadli sohalarni o'z qo'llariga oldilar. Turkiston asta-sekin Rossiyaning xomashyo bazasiga, eng avvalo paxtachilik hududiga aylantirildi. Paxta maydonlarining kengayishi natijasida g'alla ekinlari qisqarib, o'lka Rossiya don mahsulotlariga qaram bo'lib qoldi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1898-yilda Farg'ona viloyatida 85 ta, Samarqandda 22 ta, Sirdaryoda 60 ta, jami 167 ta paxta tozalash zavodi mavjud edi. XX asr boshlariga qadar esa o'lkaning sanoati asosan hunarmandchilik darajasida qolib, yirik korxonalar faqat keyinchalik paydo bo'ldi. 1914-yilda Turkistonda jami 816 ta sanoat korxonasi bo'lib, shundan 197 tasi paxta tozalash, 25 tasi un, 17 tasi yog' zavodlari edi.

Kapitalistik ishlab chiqarish rivojlanishi natijasida yirik sanoat shirkatlari vujudga keldi.

Paxta tozalash sanoatida "Alikseyev", "Andreev", "Aka-uka Vadyayevlar", "Katta Yaroslavl manfakturasi" va boshqa shirkatlar faoliyat yurita boshladi.

Paxta savdosida esa yirik firmalar yetakchi rol o'ynadi:

1. Rossiyaning Yevropa qismiga paxta jo'natuvchi firmalar;
2. O'z zavodlariga ega paxta jo'natuvchi shirkatlar;
3. Paxta maydonlari va tozalash korxonalariga ega bo'lgan, barcha operatsiyalarni amalga oshiruvchi yirik kompaniyalar.

Shulardan eng yirigi "Katta Yaroslavl manfakturasi" bo'lib, 1880-yillardan boshlab o'lkada hukmronlik qila boshladi. 1884-yilda u 140 ming pud paxta sotib olgan bo'lsa, 1889-yilda bu ko'rsatkich 590 ming pudga yetdi. Shuningdek, "N. Kudrin va K.", "Aka-uka Shlossberglar", "I.K. Koznanskiy", "L. Knop" savdo uylari ham paxta savdosida faol qatnashdilar.

Ayniqsa, Lev Knopning savdo uyi katta ta'sirga ega bo'ldi. 1900-yillarga kelib uning kapitali 2 mln rublga yetdi, Andijon va Namanganda idoralar ochib, Rossiya to'qimachilik sanoatini Turkiston paxtasi bilan ta'minladi.

Paxta savdosи yildan yilga ortib bordi. 1908–1909-yillarda Rossiyaga 8,8 mln pud paxta (to'qimachilik sanoati ehtiyojining 44 %) olib ketilgan bo'lsa, 1913–1914-yillarda bu ko'rsatkich 14,8 mln pud (51 %) ni tashkil etdi. Birinchi jahon urushi arafasida iqtisodchi S. Gulishambarovning hisob-kitoblariga ko'ra, 23 yil davomida Rossiya to'qimachilik sanoati uchun Turkistondan 120 mln pud paxta (1200 mln rubl qiymatida) olib ketilgan. Bundan tashqari, ipak, ichak, yog', jun va boshqa mahsulotlar ham Rossiya firmalarining foydasini ko'paytirgan.

Xulosa. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida rus kapitalining kirib kelishi o'lkada sanoatning shakllanish jarayonini boshlab berdi. Biroq bu jarayon mustamlakachilik siyosati sharoitida, ya'ni Rossiya imperiyasi manfaatlariga xizmat qiluvchi yo'nalishda kechdi. Paxta yetishtirish va uni qayta ishlash sanoati o'lkadagi asosiy tarmoq sifatida rivojlandi va Turkiston Rossiya to'qimachilik sanoati uchun xomashyo bazasiga aylantirildi. Natijada, paxta maydonlarining kengayishi boshqa ekinlar, ayniqsa g'alla maydonlarining qisqarishiga olib kelib, o'lka oziq-ovqat mahsulotlarida Rossiyaga qaram bo'lib qoldi.

Shu bilan birga, XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib paxta tozalash zavodlari, yog‘ishlab chiqarish korxonalar, vino va aroq zavodlari, ko‘nchilik hamda boshqa mayda korxonalar paydo bo‘ldi. Bu esa Turkistonda dastlabki kapitalistik ishlab chiqarish shakllarining shakllanishiga asos bo‘ldi. Yirik rus va mahalliy savdo shirkatlari — “Katta Yaroslavl manfakturasi”, “Kudrin va K.”, “Aka-uka Shlossberglar”, “L. Knop” savdo uyi va boshqalar o‘lka paxtasi savdosida monopol mavqega ega bo‘ldilar.

Umuman olganda, rus mustamlakachiligi Turkistonda og‘ir sanoat rivojlanishiga to‘sinqinlik qildi. Chorizm o‘lkaning ichki imkoniyatlarini emas, balki uni Rossiya bozorining ehtiyojlariga bo‘ysundirdi. Shu sababli, Turkistonda sanoatning rivojlanishi cheklangan bo‘lsada, Rossiya kapitalining kirib kelishi natijasida ayrim tarmoqlar shakllandidi va bu jarayon XX asr boshlarida o‘lkaning iqtisodiy hayotida sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Musaev N. XIX asrning II yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda sanoat ishlab chiqarishining shakllanishi. O‘quv qo‘llanma. – T.: IQTISOD MOLIYA, 2008. – B. 46, 55, 143–144.
2. Ozodaev F. Toshkent tarixidan ocherklar (XIX asrning ikkinchi yarmida shahar ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti). – T.: O‘z FA nashriyoti, 1960. – B. 164.
3. Jitov K., Nepomnin V. Ot kolonialnogo rabstva k sotsializmu. – T., 1939. – S. 19.
4. Volkov I. Torgovo-ekonomicheskie svyazi Rossii s Turkestanom (vtoraya polovina XIX – nachalo XX veka). // [Cyberleninka](#).
5. Yuldashev A. Agrarnye otnosheniya v Turkistane. – T., 1989. – S. 109.
6. Vekselman V.I. Rossiyskiy monopolisticheskiy i inostrannyy kapital v Sredney Azii. – T.: Fan, 1987. – S. 59.
7. Rasulov A., Isoqboyev A. Turkiston va Rossiya munosabatlari tarixi (o‘quv qo‘llanma). I qism. – Namangan, 2012. – B. 78.
8. Babaxonov M.B. 1868-yilgi Rossiya–Buxoro shartnomasi (1873) va amirlikning Rossiya imperiyasining vassaliga aylanishi // Rossiya–Tojikiston: munosabatlar tarixi. – D., 2009. – B. 76.
9. Xalfin N.A. O‘rta Osiyoning Rossiyaga qo‘shilishi (60–90-yillar XIX asr). – M., 1965. – B. 98.